



**SHODMON SULAYMON SHE'RIYATIDA OTA OBRAZINING
BADIY IFODASI**

Nizomova Kamola Vohid qizi

BDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Hozirgi buxoro adabiy jarayonida o'z o'rniga, mavqeiga, o'z so'ziga ega bo'lgan shoirlardan biri bu Shodmon Sulaymondir. Ushbu maqolada ijodkor she'riyatidagi ota obrazi, uning namoyon bo'lish xislatlari haqida fikrlar bildirilgan, avtobiografik she'rlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ota obrazi, otamning ayvoni, qaldirg'och, adabiy Buxoro, ota allasi.*

Hozirgi adabiy jarayonda faol ijod qilayotgan buxorolik shoirlardan biri bu Shodmon Sulaymondir. Hech bir ijodkor yo'qki, o'zligiga sababchi bo'lgan insonlar haqida kuylamasa, yurak so'zlarini qog'ozga ko'chirmasa. Shodmon Sulaymon ijodida ham o'z ota-onasidan minnatdorlik hissi she'rlarga ko'chgan holatlar ko'p uchraydi. Xususan, uning 2016-yilda birinchi bor va 2024-yilda qayta "Adabiy buxoro" nashriyotida chop etilgan "Otamning ayvoni" to'plami ijodkorning ota-onasiga bag'ishlangan. Muallifning o'zi kitobning boshlanishida "Mehridaryo ota-onam- Sulton bobo Sulaymon o'g'li va Muslima aya Normuhammad qiziga bag'ishlayman" deya qayd etadi. To'plam o'z ichiga she'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalarni jamlagan. Kitobdagi birinchi bo'lim "Otam ayvonida uchgan qaldirg'och" deya nomlanadi va "Otamga" sarlavhali she'r bilan boshlanadi.

She'r 1995-yilda yozilgan bo'lib uning asosiy mavzusi — ota mehriga sog'inch, minnatdorchilik va farzandning otaga bo'lgan samimiy muhabbati. Shoir o'z hayot yo'lida otaning o'gitlarini, mehrini eslab, unga sadoqat va hurmatini ifoda etadi. She'ning sosiy g'oyasi ota mehrining beqiyosligi, farzand hayotida otaning o'rni naqadar muhim ekanligini anglatish.

Meni o'ylab tunlari bedor,
Ta'm qoldimi eganingizda.
Ota, nima bildingiz ilk bor
"O'zing asra", deganingizda.

Bu bandda ota mehrining chuqur tuyg'usi ifodalangan. Shoir otaning g'amxo'rligini, "O'zingni asra" degan so'zlaridagi yurak og'rig'ini his etadi. Bu so'zlar — otaning farzandiga bo'lgan cheksiz mehrini bildiradi.

Orzularim, armonim necha,
Dardlarimni Sizga aytaman.
Olis yo'lga chiqdim-ku kecha,
Siz ishoning, erta qaytaman.





Bu yerda farzand hayot yo'liga chiqqani, otasidan uzoqlashgani, ammo uning ishonchini oqlashga va'da bergani ifodalanadi. Bu farzandning mustaqil hayot sari odim tashlashi va otaga bo'lgan sadoqatini bildiradi.

Bir kun mening yuragimga ham
Yog'du solg'ay zamin, tabiat.
Peshvoz chiqqan shodlikni bekam —
Baham ko'rgum siz bilan albat.

Bu bandda hayotiy falsafa bor: inson bir kun kelib tabiatning bag'riga qaytadi, ya'ni o'ladi. Lekin shoir hayotdagi quvonchlarni otasi bilan baham ko'rish orzusida. Bu — ota va farzand o'rtasidagi ruhiy bog'lanishning belgisi.

Tark etaman yolg'iz xonamni,
Fursat topsam, mushfikim, bir pas.
Suyib-suyib munis onamni,
Yo'llaringa ko'z tiksangiz, bas.⁹²

So'nggi bandda uydan chiqib ketayotgan farzandning his-tuyg'ulari ifodalangan. "Yo'llaringa ko'z tiksangiz, bas" bu otaning duosi, nazari unga yo'l yorug'lik bo'lishini istashidir. Farzand uchun ota-onaning duosi eng katta tayanch.


"Peshvoz chiqqan shodlik", "Yog'du solg'ay zamin, tabiat" kabi taxshixlar she'rning badiiy qiymatini oshirgan. She'r yurakdan chiqqan, mehr, sog'inchi va ehtirom tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. Unda otaning mehrli so'zlari, farzandning unga bo'lgan minnatdorchiligi va sadoqati samimiy ifoda etilgan.

"Otam ayvonida uchgan qaldirg'och" deya kitobning ilk qismining nomlanishida ham ramziylik bordek, go'yo qaldirg'och bu ota va farzand o'rtasidagi abadiy bog'lanish, mehr-muhabbat, hayotiy o'gitlar va sog'inchni ifodalovchi vosita. Shoir otasining mehrini qaldirg'ochning uchishi kabi erkin, ammo yurakka muhrlangan tuyg'u sifatida qabul qilgandek.

To'plamdan o'rin olgan ikkinchi she'r "O'kinch" deb nomlangan bo'lib, u 1996-yilda yozilgan va 9 banddan iborat, "Onamni yeb katta bo'ldim, otamni yeb katta bo'ldim" degan naqorat kabi takrorlanuvchi misralarga ega. She'r biografik yo'nalishda yozilgan, o'quvchi misralardan shoirning 6ta opasi, 4ta akasi borligini bilib oladi. Otasini tillo, qo'ynimdagi ko'zmunchog'im, ko'zimdagi jolaginam sifatleri bilan ta'riflaydi. Shoir shunday deydi: hayot o'tib, ota-onadan ayrilgach, inson "katta bo'ldim" deb o'ylaydi, ammo aslida u yo'qotish orqali ulg'ayganini tushunadi. "O'kinch" — bu insonning hayot saboqlari, ota-onaga bo'lgan sog'inchi va insoniy qadriyatlarga qaytish chaqiruvi. Shoir "katta bo'ldim" deya faxrlanmaydi, u o'z ulg'ayishini yo'qotishlar va iztiroblar orqali angladi. Bu she'r o'quvchida ota-onani qadrlash, mehrni asrash va yaxshilikdan yuz o'girmaslik tuyg'usini uyg'otadi.

To'plamdagi yana bir she'r meni o'ziga tortdi, u "Ota allasi" deb nomlanadi. Nima uchun ona allasi emas, u otasidan ko'p alla eshitib katta bo'lganmi, o'zga mehr va

⁹² Shodmon Sulaymon "Otamning ayvoni" -Buxoro, Adabiy Buxoro-2024y, 14-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

nomlanishning sababi nimada. Mazmunidan kelib chiqib, bu she'r otasining farzandiga o'git va duo shaklidagi lirikasidir deyish mumkin. She'rdan otaning farzandiga qilgan duosi, hayotiy o'g'itlari va ezgu tilaklari aks etgan. Shoir ota tilidan farzandga shunday degandek: "O'g'lim, hushyor bo'l, vatanparvar bo'l, sabrli, mard, bardoshli bo'l." Bu she'r — ota allasi, ya'ni otaning farzandini mehr bilan hayotga tayyorlovchi so'zlari, duosi va vasiyati. She'rning g'oyasi — farzandni or-nomusli, vatanparvar, bilimli, mard va bardoshli inson qilib tarbiyalash.

Erka bolam, peshonasi ochiq bolam,
Otasiga fe'li tortgan injiq bolam,
Ulug'laring mard so'rasa, sen chiq, bolam,
Uyg'on bolam, bardoshlari toshdan bo'lsin.

Bu yerda ota mehr bilan gapirmoqda. U farzandiga "sen mard, to'g'riso'z, bardoshli bo'l" deb duo qiladi. "Bardoshlari toshdan bo'lsin" degani hayot sinovlariga bardosh beruvchi, kuchli bo'l degan ma'noda.

Dunyo nima, mendan so'ra – bitta o'yin,
Xiylalari ortib borar o'tgan sayin.
Kimga qiyin? G'aflatda yotganga qiyin,
Uyg'on, bolam, do'sting el-qardoshlardan bo'lsin.⁹³

Ko'p ijodkorlar ijodida dunyoning metafora o'xshatishlar turlicha, lekin Shosmon Sulaymon dunyoni o'yin deydi, bu bandda hayot falsafasi berilgan. Dunyo birgina "o'yin", ammo inson bu o'yinda hushyor bo'lishi kerak. Ota farzandiga "g'aflatda qolma, do'stlaring elga manfaati tegadigan insonlar bo'lsin" deb nasihat qiladi. Har bir bandning oxirgi misrasi bir nasihatdek go'yo uyg'on bolam, bardoshlari toshdan bo'lsin(1-band), do'sting el-qardoshlardan bo'lsin(2-band), o'ring avval-boshdan bo'lsin(3-band), mehning ko'z-qo'shdan bo'lsin(4-band), yuraging quyoshdan bo'lsin(5-band). "Uyg'on, bolam" iborasi duoday, ruhi kuchli ohangda qaytariladi. "Ota allasi" she'rida mehr, orzu, o'git va faxr uyg'unlashgan. Ota nafaqat o'z bolasiga, balki butun yosh avlodga murojaat qiladi: "Uyg'on, ilmi bo'l, Vatan uchun yashagin". "Ota allasi" — bu ota mehrining, vatanparvarlikning va milliy g'ururning kuyi. She'rdan har bir so'z duoga, har bir satr hayot sabog'iga aylangan. Asarning umumiy ruhi yoshlarni hushyorlikka, mehnatga, ilmga, vatan muhabbatiga undaydi.


Shoir 2005-yilda "O'git" nomli g'azalni bitadi. Har bir bayti 2misradan iborat va nasihatomus ruhdagi so'zlar uyg'unlashgan:

Ezma ko'p otang dilin, iqbolga yetsin toabad,
O'rtanib g'amdin ado bo'lmay, o'qi dil daftarin.⁹⁴

Nimaga aynan ota dilini ezma deyapti ijodkor, chunki hayotda ham e'tibor beradigan bo'lsak ayol kishi gapirib, yig'lab o'z iztiroblarini tashqariga chiqarishi mumkin, ammo erkak kishi ichiga yutadi u birovga ochiq ayolmaydi qalb iztiroblarini. Shuning uchun

⁹³ Shodmon Sulaymon "Otamning ayvoni" -Buxoro, Adabiy Buxoro-2024y, 38-bet

⁹⁴ Shodmon Sulaymon "Otamning ayvoni" -Buxoro, Adabiy Buxoro-2024y, 21-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ham ota dilini ezma degan ibora keltirilgan she'rda. Aksincha uning dil daftarini o'qi deyilyapti, farzandlik burchi bu ota-onani qadrlash, ularning ko'ngillarini topib ish ko'rish.

Shodmon Sulaymon ijodida turkum she'r namunalari ham uchrab turadi. Ulardan biri "Fursat suronlari" deb nomlanib, 4-qismi "ota" degan undalma bilan bishlanadi:

Ota, ko'zingizdan chekindi ziyo,
Ening yuragimda gulladi armon,
Avval ham tormidi shunchalar dunyo,
Avval ham tormidi siz suygan yobon?!⁹⁵

Baytdagi shoirning bir o'g'il farzand sifatida ota iztirobiga she'riklik, g'amxo'rlik, achinish va iztirob hissi o'quvchini o'ziga tortmasdan qo'ymaydi. Shodmon Sulaymon ijodida ota timsolining qattiqqo'l emas, balki muloyim, farzandlarga nasihat qiladigan mo'ysafid, oilasi uchun jon fido qiladigan jonkuyar, farzandlari uchun mas'ul bir shaxs sifatidagi tasvirini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shodmon Sulaymon "Otamning ayvoni"-Buxoro, Adabiy Buxoro-2024y
2. Shodmon Sulaymon "Men baxtli yaraldim"-Toshkent, Navro'z-2015y



⁹⁵ Shodmon Sulaymon "Otamning ayvoni"-Buxoro, Adabiy Buxoro-2024y,33-bet.

